

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

bo‘lishi talab etiladi. Bunday chegaralardan chetga chiqish yoki ularni mensimaslik, huquqbuzar davlat bilan birgalikda javobgarlik vositalarni qo‘llagan davlatlar yoxud xalqaro tashkilotlarga nisbatan ham javobgarlikni yuzaga keltirib chiqarish shubhasiz. Shu sababdan xalqaro sudlar hatti harakatlarni odilona baholasinlar, davlatlar va xalqaro hukumatlararo tashkilotlar esa tegishli javobgarlik shakillaridan foydalanayotganda ma’lum chegarani saqlashlari lozim, zero ushbu harakatlari undanda ko‘proq jinoyatlarni sodir etilishiga zamin yaratmasin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Saidov, A. X., & Boshqalar. (2023). Xalqaro ommaviy huquq: Darslik. TDYU nashriyoti.
- 2) Shaw, M. N. (2021). International law (9th ed.). Cambridge University Press.
- 3) **Mualliflar jamoasi.** (2018). *Xalqaro huquq: Darslik*. TDYU nashriyoti.
- 4) **Odilqoriyev, X. T., & Ochilov, B. E.** (2007). *Xalqaro ommaviy huquq: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik*. Adolat
- 5) Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1948). Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
- 6) Iroq: The impact of sanctions on public health. (n.d.). The Journal of the American Medical Association (JAMA). <https://jamanetwork.com/journals/jama>
- 7) United Nations. (2001). Responsibility of the states for internationally wrongful acts.
- 8) Prof. Eric Wyler and León Castellanos-Jankiewicz (2010) State Responsibility and International Crimes.
- 9) United Nations. (1946). The United Nations Charter.
- 10) Douhan, A. (2021). Visit to the Bolivarian Republic of Venezuela: Report of the Special Rapporteur on the Negative Impact of Unilateral Coercive Measures on the Enjoyment of Human Rights. The United Nations Digital Library. <https://digitallibrary.un.org/>
- 11) Ramon Das (n.d.) Human rights and economical sanction in Iraq. ACADEMIA. https://www.academia.edu/11343436/Human_Rights_and_Economic_Sanctions_in_Iraq

MAHMUDXO`JA BEHBUDIYNING ADABIY MEROSI.

Turniyoza Sarvinoz Sobirjonovna

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti talabasi

Qahhorova M.L

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti o‘qituvchisi,

Annotatsiya: Ushbu maqola Behbudiy (asli ismi Mahmud bin Muhammad al-Bukhari)-òzbek adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri bòlib,uning asarlari XX asrning boshlarida adabiy muhiti va madaniy rivojlanishiga katta ta'sir kòrsatgan.U òz vaqtida òzbek xalqining milliy gùruri,ma'naviyati,ta'limi va ilm-faniga oid bir qator muhim asarlar yaratgan.Behbudiy nafaqat adabiyotda,balki òz zamonasining siyosiy,ijtimoiy va ma'rifiy hayotida ham muhim rol òynagan shaxs sifatida tanilgan.

Kalit soʻzlar; Behbudiy hayoti, ijodi, asarlar, ta'lim, adabiyot, fan, madaniyat, oʻzbek adabiyoti.

MAHMUDHOJA BEHBUDI'S LITERARY HERITAGE

Annotation; *This article is about Behbudiy (his real name was Mahmud bin Muhammad al-Bukhari), one of the prominent figures in Uzbek literature. His works had a significant influence on the literary environment and cultural development at the beginning of the 20th century. He created several important works related to the national pride, spirituality, education, and science of the Uzbek people. Behbudi was known not only in literature but also as a significant figure in the political, social, and educational life of his time.*

Keywords; *Behbudi, life, works, culture, Uzbek literature.*

ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ МАХМУДХО'ЖА БЕХБУДИ

Аннотация; *Эта статья посвящена Бехбудию (настоящее имя Махмуд бин Мухаммад аль-Бухари)-одному из великих представителей узбекской литературы, чьи произведения оказали большое влияние на литературную атмосферу и культурное развитие в начале XX века. Он создал ряд значительных произведений, касающихся национальной гордости, духовности, образования и науки узбекского народа своего времени. Бехбудий был известен не только в литературе, но и как важная фигура в политической, социальной и образовательной жизни своего времени.*

Ключевые слова: *Бехбудий, жизнь, творчество, произведения, образование, литература, наука, культура, узбекская литература.*

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir.

Uning hayoti va ijodiga tuxtalsak, Behbudiy 1875-yil 19-yanvarida (hijriy 1291-yil 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida diniy olim oilasida dunyoga kelgan. Behbudiyning ota-onasi o'z zamonasining bilimdon insonlari bo'lib, ularni bilimga bo'lgan qiziqish va muhabbat Mahmudxo'ja Behbudiyga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. U yoshligida madrasada o'qigan va bir qancha ilmiy va adabiy bilimlarni o'zlashtirgan. U o'z vaqtida oliy ta'lim olishga intilgan, yoshligida turli ilmiy manbalarni o'rgangan va o'z davrining eng ilg'or fikrlarini o'zlashtirgan. Mahmudxo'ja Behbudiy otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, onasi tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod hukmronlik qilgan davrda Samarqandga ko'chib kelgan. Mahmudxo'ja Behbudiy 6-7 yoshlarida tog'asi Muhammad Siddiq huzurida o'qib savod chiqaradi, otasi Behbudxo'jadan esa Qur'ondan saboq olib qisqa muddatda qorilik martabasiga erishadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti murakkab, uzoq muddat davomida qat'iy siyosiy

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

tizimlar orasida qolgan.Uning ijodi ko‘plab inqilobiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirgan.Behbudiy ko‘plab madaniy,ijtimoiy,siyosiy va adabiy inqiloblar bilan bog‘liq bo‘lgan,bir paytda jangavor kurashlar va murakkab siyosiy vaziyatlarni boshidan kechirgan.Behbudiy 1893-yil onasi,1894-yilda esa otasi vafot etadi.Otasining vafotidan biroz avval uylangan Behbudiy to‘rt o‘g‘il,bir qiz ko‘rgan.Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ma'lumotlar nihoyatda kam.

18 yoshiga yetganda Behbudiy madrasa ta'limini tugatadi va Samarqand viloyati Chashmaob (Chashmai ob) volostida qozillik qilgan tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘l ostida mirzalik lavozimida ishlay boshlaydi.

Tog‘asi huzurida ikki yillik faoliyat, tog‘asi qozilikdan bo‘shagandan keyin Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o‘g‘li qo‘lida mirzalik ishini davom ettirishi uning dunyoqarashlari va kelajak faoliyatida katta o‘zgarish yasaydi.U shariat qonunlarini puxta o‘zlashtiradi va mufti lavozimini egallaydi.1916-yilgacha muftilik faoliyati bilan muntazam shug‘ullanadi.Mahmudxo‘ja Behbudiy 1893-yildan Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy matbuot bilan tanishib borgan.1899-1900- yillarda Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. Bu sayohat uning hayot yo‘lida,kelajakda bo‘ladigan hodisalar,yangiliklarni boshlab berdi.U 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy),Rajabamin (A.Shakuriy)qishloqlarida yangi maktablar tashkil qilinadi.Adib ushbu maktablar uchun darslik tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning "Risolayi asbob savod", (1904),"Risolayi jug‘rofiyayi umroniy"(1905),"Risolayi jug‘rifiyayi Rusiya"(1905), "Kitobatul atfol"(1908), "Amaliyoti islom"(1908), "Tarixi islom"(1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1903-1904-yillarda Moskva,Peterburgga boradi,1906-yilda Qozon Ufa, Nijniy Novgordda bo‘ladi bular sayohat emas,xizmat safari edi. 25 kunga cho‘zilgan bu safar haqida Behbudiy so‘ngroq shunday ma'lumot bergan edi:"1325 san’ati hijriyasinda Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijniy yorminkasinda milliy ishlar to‘g‘risinda mashvarat qila turgan majlisg‘a musharraf bo‘lmoq uchun O‘runburg yo‘li ila Maskuf, Peterburg, Qozon vositasila Nijniy Novg‘orud borib edim".Behbudiy 1913-yili "Samarqand" gazetasini nashr qilish uchun hukumatdan ruxsat oldi.

Gazeta o‘zbek va tojik tillarida, moddiy tanqislik tufayli nashr to‘xtadi. Keyinchalik 1913-yil 20-avgustdan "Oyna"jurnalini chiqara boshladi. "Oyna"jurnalida millat va uning haq- huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisobladi.

Behbudiyning ijodi o‘zbek adabiyotining rivojlanishida katta rol o‘ynagan.U asosan dramaturgiya, poeziya, va publitsistika yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatgan. Uning asarlari o‘zbek xalqining ma'naviy va madaniy hayoti,ta'limi va jamiyatdagi o‘zgarishlarga oid chuqur tahlil va ijtimoiy-siyosiy masalalarni yoritgan. Uning eng mashhur asarlari "Sadriddin", "Majlis al-ashiqin", "Madaniyat", "Maqsad", Mahram" va "Xulq". Behbudiyning eng yirik asari

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

"Sadridin"-drammasidir. Asarda o'zbek xalqining tarixiy rivojlanishi va ilmiy yuksalishi tasvirlangan.

Mahmudxo'ja Behbudiy butun faoliyatini millatni ilm-ma'rifatli qilishga qaratdi, buning uchun u usuli jadid maktablari tarmog'ini kengaytirish, ular uchun o'quv dastur va darsliklar yaratish, o'quvchilarni o'quv qurollari bilan ta'minlash, kutubxonalar, nashriyotlar tashkil qilish ishlari bilan muttasil shugullandi. Behbudiyning asarlarida millat, uning kelagi, tarixi va madaniyatining ko'plab jihatlarini ko'rib chiqilgan. U o'zbek xalqining o'zgaruvchan davrida qanday yashashini va qanday rivojlanishini tasvirlagan. U o'z asarlarida nafaqat estetik maqsadda, balki xalqni ijtimoiy va siyosiy jihatni uyg'otish uchun ham yozgan. Behbudiyning ediyalarini davom ettirgan va yangi davrning ehtiyojlariga moslashtirgan. Behbudiyning izdoshlari uning adabiy merosini yangi yuksakliklarga olib chiqqan, ular o'z asarlarida ijtimoiy adolat, erkinlik va madaniyat qadriyatlarini ko'rsatishgan.

Behbudiy o'z davrining yorqin adabiy shaxslardan biridir. Shuningdek o'zbek xalqining milliy g'ururi va qadriyatlarini chuqur ifodalagan. Bugungi kunda ham Behbudiy asarlari va uning faoliyati o'zbek adabiyotining muhim qismiga aylangan va uning nomi yodgorlik sifatida adabiyotimizda saqlanib qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. - Toshkent: Akademiya, 1999.
2. Baldauf, Ingeborg. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
3. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri. - Toshkent: Universiteti, 1999.
4. Ismoil Gasprinskiy va Turkiston. — Toshkent: Sharq, 2005
5. Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy. - Toshkent, 2010.
6. Qosimov B. Maslakdoshlar. — Toshkent: Sharq, 1994.
7. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. — Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
8. Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darg'alari. — Toshkent: O'qituvchi, 1990.
9. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. // Nashriyot tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi B. Qosimov. 3-nashri. — Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
10. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2 jildli / Nashriyot tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi S. Ahmedov. — Toshkent: Akademiya, 2018.
11. Rizayev Sh. Jadid dramasi. — Toshkent: Sharq, 1997.
12. Edvort Olvort. Birinchi o'zbek drammasi. Ingliz tilidan Zulxumor Mirzayeva tarjimasi // Jahon adabiyoti, 2009-yil, 9-son 7